

Qurilish kompleksi tomonidan 2025 yil 9 oylik amalga oshirilgan va amalga oshiriladigan ishlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

Ko‘p qavatli uy-joylar qurilishi

Tumanning “**Istiqlol**” mahallasi va “**Bodoy**” mahallalari hududidan “**Madina savdo belgisi**” xususiy korxonasi tomonidan jami **4 ta 230 xonadonli** ko‘p qavatli uy-joylar qurilishi reja qilingan bo‘lib, shundan iyun oyida “**Istiqlol**” mahallasi hududida **2 ta** jami **55 xonadonli** ko‘p qavatli uy-joylar foydalanishga topshirildi.

“**Bodoy**” mahallasidan **1 ta 65 xonadonli** va “**Istiqlol**” mahallasi hududidan **1 ta 110 xonadonli** ko‘p qavatli uy-joylar reja grafik asosida 2025-yil noyabr oyi yakuniga qadar to‘liq foydalanishga topshirilishi rejorashtirilgan.

Maktab va DMTT qurilishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 dekabrdagi “**2025-2027 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ-454-soni qaroriga asosan “**Afsona omad tamir qurilish**” xususiy korxonasi tomonidan tumanning “**Xudoyberdi**” mahallasi hududida joylashgan **9-son umumi o‘rta talim muktabiga** quvvati **180 o‘ringa** mo‘ljallangan binosining ichki va tashqi pardozlash ishlari, “**Za-ravsh-an**” MChJ tomonidan “**Urganji**” mahallasi hududida joylashgan **11-sonli muktabgacha ta’lim tashkilotiga** quvvati **150 o‘ringa** mo‘ljallangan binosining ikkinchi qavat g‘isht terish ishlari, “**Yangixayot ideal**” MChJ tomonidan “**Nayman**” mahallasi hududida joylashgan **36-sonli muktabgacha ta’lim tashkilotiga** quvvati **120 o‘ringa** mo‘ljallangan binoning ichki va tashqi pardozlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Tibbiyot muassasalarini qurilishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 dekabrdagi “**2025-2027 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ-454-soni qaroriga asosan “**Madina savdo belgisi**” XK tomonidan tumanning “**Go‘ro‘g‘li**” mahallasi hududida joylashgan **50 o‘ringa** muljallangan “**Go‘ro‘g‘li**” oilaviy shifokorlik punkti qayta rekonstruksiya qilindi.

Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dastur doirasida og‘ir toifadagi **7 ta** mahallalar (“**Sardoba**”, “**Mirzo Nodim**”, “**Mirzo Olim**”, “**Saroy**”, “**Amirobod**”, “**Toshko‘prik**” va “**Nayman**”) infratuzilmasini yaxshilash va aholi tomorqasini samarali foydalanish borasida PQ-330 bilan tasdiqlangan parametrlariga asosan jami **21 mlrd. so‘m** mablag‘ ajratildi.

Aholi tomorqasini sug‘orish tizimini yaxshilash uchun **7 ta** mahallada **23,8 km** uzunlikdagi ariqlarni betonlashtirish va **3,2 km** ariqlarga lotoklar o‘rnatish rejorashtirilgan

Jumladan:

“**Mirzo Olim**” mahallasida **3,77 km** ariqlarni betonlashtirish;

“**Sardoba**” mahallasida **4,9 km** ariqlarni betonlashtirish;

“**Nayman**” mahallasida **3,5 km** ariqlarni betonlashtirish;

“**Amirobod**” mahallasida **4,9 km** ariqlarni betonlashtirish, **0,2 km** ariqlarlarga lotok o‘rnatish;

“**Saroy**” mahallasida **2,6 km** ariqlarni betonlashtirish;

“**Mirzo Nodim**” mahallasida **4,1 km** ariqlarni betonlashtirish;

“Toshko‘prik” mahallasida **3,0 km** ariqlarlarga lotok o‘rnatish; hamda **11 ta** artezian quduqlari qazish rejalashtirilib, jami **12,412 mlrd. so‘m** mablag‘ ajaratilib amalda belgilangan reja to‘liq bajarilgan.

11 ta (“Sardoba” **2 ta**, “Mirzo Nodim” **2 ta**, “Mirzo Olim” **2 ta**, “Saroy” **1 ta**, “Amirobod” **1 ta**, “Toshko‘prik” **1 ta** va “Nayman” **2 ta**) artizan quduqlari o‘rnatish rejalashtirilib, amalda **10 ta** qazilib foydalanishga topshirildi.

Elektr energiyasi ta’minotini yaxshilash borasida **4 ta** transfarmator punktlar, **151 dona** beton ustunlar, **6,55 km** uzunlikdagi SIP kabellari tortish uchun jami **1,314 mln.so‘m** miqdordagi mablag‘ ajratildi.

Natijada **4 ta** transformator punktlari, **151 ta** beton ustunlari hamda **6,55 km** SIP kabellari tortilib rejalashtirilgan barcha ishlari yakuniga yetkazildi. Jumladan,

“Nayman” mahallasida **566 mln.so‘mga 1 ta** TP, **83 ta** beton ustunlar o‘rnatildi va **2,8 km** SIP kabel tarmog‘i tortildi;

—“Mirzo Nodim” mahallasida **246 mln.so‘mga 2 ta** TP, **30 ta** beton ustunlar o‘rnatildi va **1,25 km** SIP kabel tarmog‘i tortildi.

—“Toshko‘prik” mahallasida **502 mln.so‘mga 1 ta** TP, **38 ta** beton ustunlar o‘rnatildi va **2,5 km** uzunlikda SIP kabel tarmog‘i tortildi.

2025 yil 1-mavsum “Open byudjet” dasturi

Joriy yilning 1-mavsumida “Open byudjet” dasturi doirasida “Dilshoda obod qo‘rg‘on” MChJ tomonidan tumanning “Xunarmand” mahallasi binosini rekonstruksiya qilish ishlari boshlangan, “Mavlanov Olim” MChJ tomonidan “Shamsnazar” mahallasi hududidagi **32-son maktab** stadionini ta’mirlash, “Madina savdo belgisi” xususiy korxonasi tomonidan tumanning “Bo‘ston” mahallasi hududida joylashgan **Tibbiyat birlashmasiga** qarashli Markaziy shifoxonani klinik diagnostika bo‘limini tamirlash hamda laboratoriya bo‘limini rekonstruksiya qilish va qo‘sishimcha bino qurish, “Quruvchi Uchqun Akmalovich” MChJ tomonidan tumanning “Bo‘ston” mahallasi hududida joylashgan **Tibbiyat birlashmasiga** qarashli Tumanlararo qo‘shma shikastlanish va o‘tkir qon tomir kasalliklari markazi binosi va operatsion blokni kapital tamirlash, “Madina savdo belgisi” MChJ tomonidan tumanning “Amir Temur” mahallasi hududida joylashgan **Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumini** kapital tamirlash ishlari amalga oshirilmoqda, “Sidqidil servis” MChJ tomonidan “Mirkan” mahallasining “Mirkan” va “Orom” ko‘chalarining **2,6 km** qismida asfalt qoplama bilan tamirlash ishlari bajarilmoqda, “Jonibek baraka” MChJ tomonidan “Tadbirkor” mahallasi “Bog‘ieram” va “Ziyokor” ko‘chalarini **2,6 km** qismida asfalt qoplama bilan ta’mirlash ishlari bajarildi.

Yo‘llar

Tuman hududida jami **1072 km** avtomobil yo‘llari mavjud bo‘lib, shundan umumiyligi foydalanishdagi yo‘llar **219 kmni**, shahar ko‘chalarini va ichki xo‘jalik yo‘llari **853 kmni** tashkil etadi.

Tuman Yo‘llardan foydalanish korxonasi DM tomonidan joriy yilda - umumfoydalanuvdagagi **30V 066 (4K 560)** “Boltali-Bog‘oloni-Ziyovuddinga kirish” avtomobil yo‘li **7-12 km** oraliqlarida **5,0 km** qismida joriy ta’mirlash, **30V 116 (4H 535)** “Boltali-Bog‘oloni-Navbahor-Doroytut qishlog‘i” avtomobil yo‘li **6-8 km** oraliqlarida **1,5 km** masofa ta’mirlash, **D 071 (4R 52)** “A378 avtomobil yo‘li (45 km.dan) – Sariko‘l q.– Nurobod sh. – Sepki q. – Qarnab q. – Navoiy shahri” avtomobil yo‘li **131-133 km** oraliqlarida **2,0 km** masofada joriy ta’mirlash, **D 077 (4R 185)** “M-37 avtomobil yo‘lidan Qarnabota qishlog‘iga kirish” avtomobil yo‘li **15-30 km** oraliqlarida **15,0 km** masofada joriy ta’mirlash ishlari bajarildi.

Shuningdek tabiiy ofatlar natijasida tumanning “**Fay**” mahallasi hududidan o‘tuvchi **D 077 (4R 185)** “M-37 avtomobil yo‘lidan Qarnabota qishlog‘iga kirish” avtomobil yo‘lining **8-9 km** oralig‘ida joylashgan ko‘priksi qayta qurish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 11 oktyabrdagi “**Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida**”gi 665-sonli qaroriga asosan tuman hududidagi **18 km** ichki xo‘jalik yo‘llarini joriy ta‘mirlash bo‘yicha **4,0 mld. so‘m** mablag‘ ajratilgan bo‘lib, bugungi kungacha **13,4 km** yo‘llarni ta‘mirlash ishlari bajarildi.

Bundan tashqari joriy yilda **tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** orqali xashar yo‘li bilan **29,0 km** tuproq yo‘llar shag‘allashtirildi va elektr energiyani iqtisod qilish maqsadida **500 dona** tungi yoritish chiroqlarini quyosh panelli tungi yoritgich chiroqlariga almashtirildi.

Elektr ta‘minoti

Joriy yil **tuman Elektr ta‘minoti korxonasi** tomonidan “**Modernizatsiya va rekonstruksiya**” dasturi orqali “**Oqtepa**” mahallasi va tumani **Elektr ta‘minoti korxonasi** tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan **Nurobod tumani “Saxobaota”** mahallasiga **2 ta** transformator punkti o‘rnatildi.

Tuman hududida yashovchi aholini sifatlari elektr energiyasi bilan ta‘minlash maqsadida **HL-0,4-6-10 kV 314 dona** temir-beton ustunlar joyiga o‘rnatildi va **8,92 km SIP-2** kabel tarmog‘i tortildi.

Bundan tashqari tumandagi **44 ta** transformator punkti, **HL-0,4-6-10 kV 116,6 km** elektr uzatish tarmoqlarida mukammal ta‘mirlash ishlari va **74 ta** transformator punkti, **HL-0,4-6-10 kV 250,7 km** elektr uzatish tarmoqlarida joriy ta‘mirlash ishlari bajarildi.

Gaz ta‘minoti

Tumanimizning **30%** aholisi tabiiy gaz bilan ta‘minlangan qolgan **70%** esa suyultirilgan gazga moslashtirilgan. **23 ta** maxalla tabiiy gaz bilan ta‘minlangan bo‘lib **12753 ta** xonadonni tashkil qiladi. Suyultirilgan gazga moslashtirilgan maxallalar **36 tani** tashkil qiladi **29112 ta** xonadonga **32400 ta** maishiy gaz balonlar tarqatilgan.

“**Paxtachitumangaz**” GTB tomonidan tumandagi **3 ta** gaz taqsimlash qurilmasi mukammal ta‘mirlandi, **208 ta** gaz taqsimlash qurilmalari mavjud bulib, shundan **19 tasi** yuqori bosimli, **189 ta** urta bosimli gaz taqsimlash qurilmalarini tashkil qiladi. “**Chashma**” va “**Xayit Elbegi**” maxallaridagi **2 dona** yukori bosimli gaz taksimlash kurilmalari yangi zamonaviy gaz taksimlash kurilmalariga almashtirildi.

Joriy yilning **7 oyida 88 ta** gaz taksimlash kurilmalari taftish (reviziya) qilindi, **82 km** yer osti gaz quvurlarining holati tekshirildi, **15,2 km** gaz quvurlarida buyoqlash ishlari bajarildi. Gaz quvurlarining umumiyligi **318,3 km** bo‘lib, shundan yer usti **212,6 km**, yer osti **105,6 kmni** tashkil etadi. Umumiyligi yuqori bosimli **34,4 km**, o‘rta bosimli **84,1 km** hamda past bosimli **200,7 kmni** tashkil etadi.

Joriy yilda tuman aholisini tabiiy gaz bilan uzlusiz va sifatlari ta‘minlash maqsadida “**Gulobod**” mahallasi hududida joylashgan uzoq yillar foydalanishda bo‘lgan va hozirgi vaqtida ma’nani eskirgan **2,0 km** yuqori bosimli yer osti gaz quvurlarini rekonstruksiya qilish ishlari boshlandi.

“**Gulobod**” mahallasidagi **2,0 km** polietilen yer osti o‘rta bosimli gaz quvurlari yer ustiga olindi.

“Qarnabota” va “Chashma” mahallalaridagi **1076 ta 5 ta** ulgurji tashkilotlar **3 bosqichli** tizimdan **2 bosqichli** tizimga o’tkazildi. Ushbu mahallalardagi mavjud **32 ta** gaz taqsimlash qurilmalaridan **26 tasi** demontaj qilindi. Natijada **1076 ta** aholi va **5 ta** ulgurji tashkilotlarning tabiiy gaz ta’minoti yaxshilandi.

“Bo’ston” mahallasida **0,6 km** yer osti gaz kuvurlari rekonstruksiya qilinib, yer ustiga olindi.

Tuman bo‘yicha 2025 yilda jami **655 dona** regulyator o‘rnatish rejalashtirilgan bo‘lib, hozirgi kunda **1050 dona** o‘rnatildi.

Tumanda **45 ta** mahalla ya’ni tuman aholisining **29 912 tasi** suyultirilgan gaz bilan ta’minlangan. Yil boshidan **110 ta** yangi xonodon maishiy gaz ballonlari bilan ta’minlandi. Tuman aholisiga suyultirilgan gaz mahsulotlari bilan o‘rtacha **40-45 kun** oralig‘ida ta’minlanib kelmoqda.

Yil boshidan suyultirilgan gaz maqsulotlarini aholiga yetkazib berish **2065 tonna** rejalashtirilgan bo‘lib, amalda **1711 tonna** aholi honadonlariga yetkazib berilgan. Joriy yil yakuniga qadar tuman aholisini suyultirilgan gaz bilan uzlusiz ta’minlash maqsadida yangi **390 ta** xonodon maishiy gaz ballon bilan ta’minlanadi.

Suv ta’minoti

Joriy yilda “Samarqand suv ta’minoti” AJ Paxtachi tumani filiali tomonidan tumanning “Boltali” mahallasining “Yashil diyor” qishlog‘i aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash maqsadida **2,6 km** yangi tarmoq tortilib **50 ta** xonodon ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

“Mojor” mahallasi hududida **1,5 km** ichimlik suvi tarmog‘i tortilishi evaziga **25 ta** xonodon ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

“Ko‘rpa” mahallasi hududida **1,4 km** ichimlik suvi tarmog‘i tortilishi evaziga **35 ta** xonodon ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

“Yangiobod” mahallasi “Temir yo‘l” ko‘chasida yashovchi **30 ta** xonadonga **0,15 km** yangi ichimlik suvi tarmog‘i tortib berildi.

Tuman hududidagi **7 ta** suv inshootlarida manan eskirgan suv jixozlari va nasoslari almashtirilib, masofadan turib nazorat qilish maqsadida kameralar o‘rnatildi.

“Mojor” mahallasi hududidagi “Xayrobot” suv inshooti **0,25 km** panjara bilan o‘raldi, “Amir Temur” mahallasi hududida joylashgan “Ziyovuddin” va “Qirguli” mahallasi hududida joylashgan “Suluvqo‘rg‘on” suv inshootlariga yangi suv nasoslari o‘rnatildi.

“Jahonobod” mahallasi hududidagi **1500 m³** sig‘imli oqova suv inshooti joriy ta’mirlandi.

Yashil makon dasturi doirasida

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-sون Farmoniga muvofiq tumanda o‘tgan 2025 yil bahor mavsumida jami **700 ming** to‘p xar xil turdag‘i manzarali va mevali darax ko‘chatlari ekish rejalashtirilgan edi.

Bugungi kunda **807,5 ming** tup mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekilib reja **115 %**ga bajarildi.

Shulardan:

Atrof-muhitga ta'sir xavfi yuqori va o'rta darajadagi sanoat korxonalarini tomonidan "**Yashil belbog**"lar barpo etish uchun **35,45 mingta**, fermer ho'jaliklari, paxta va g'allachilik klasterlarining dalalari chetlariga **273,8 mingta**, bog'zorlar, tokzorlar barpo etish uchun **203,0 mingta**, Obodonlashtirish boshqarmasi ob'ektlarida **25,2 mingta**, tumandagi mahallalar va boshqa ob'ektlar hududlarida, aholi tomorqalarida ko'chat ekish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlari orqali **102,2 mingta**, o'rmon fondi yerlarida o'rmon barpo etish uchun **48,1 mingta**, daryolar, kanallar, ariqlar va zovurlar bo'ylariga **22,0 mingta**, mактабгача va мактаб талими hududlariga **7,0 mingta**, sog'liqni saqlash obektlari va ularga tutash hududlarga **9,2 mingta**, avtomobil va temir yo'llari bo'ylariga **17,2 mingta**, texnikum va kasb-xunar maktablari hududlariga **3,4 mingta**, tijorat banklari tomonidan **4,36 mingta**, vazirlik, idoralar, korxonalar tomonidan **17,75 mingta**, yangi tutzorlar barpo etish uchun **37,75 mingta**, chiqindi poligoni atrofida ihota daraxtzorlarni barpo etish uchun **1,1 mingta** ko'chatlar ekilishi ta'minlandi.

Tumanimizda bu boradagi ishlari joriy yil ko'z mavsumida ham davom etadi. Joriy yil ko'z mavsumida "**Yashil makon**" umummilliy loyihasi doirasida **416 ming** tup daraxt ekish ishlari rejalashtirilgan.

2025-2026 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida

2025-2026 yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va tabiiy gazni istemolchilarga uzlusiz va betalofat yetkazib berish maqsadida quyidagi ishlari amalga oshirilmoqda. Shu kungacha **208 ta** gaz taqsimlash qurilmalari shu jumladan **19 ta** yuqori bosimli va **189 ta** o'rta bosimli gaz taqsimlash qurilmalari yillik taftishdan o'tkazildi, **3 ta** gaz taqsimlash qurilmalari mukammal ta'mirlandi. Bundan tashqari **68 km** gaz quvurlari bosim ostida zichlikka sinash, **119,5 km yer** osti gaz quvurlari maxsus uskuna yordamida holatini tekshirish ishlari, **22 km yer** usti gaz quvurlari buyoklanib tartibga keltirish ishlari bajarildi.

Tumanda aholi iste'molchilarni elektr energiyasi bilan uzlusiz ta'minlash maqsadida **2025-2026** yil kuz-qish mavsumida elektr uskunalarni ishlashga tayyorlash chora-tadbirlar bo'yicha 2025 yilda **HL-10 kV 59,8 km, HL-0,4 kV 84,1 km** jami bo'lib **143,9 km** va **55 dona** transformator punkti mukammal ta'mirlashga rejalashtirilgan bo'lib, shundan **HL-10 kV 59,8 km, HL-0,4 kV 84,1 km** jami bo'lib **143,9 km** elektr uzatish tarmog'ida salqi simlar tortilib, daraxt shoxlaridan tozalandi va **55 ta** transformator punktlari mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari;

Tuman mahalliy byudjetidan **287,9 mln.so'm** mablag' ajratilgan bo'lib, bu mablag'lar hisobiga tumanning **Tug'olon, Oktepa, Xudoyerdi, Obodon, Bog'oloni** mahallalarida elektr ta'minotini yaxshilash uchun **117 dona** temir beton ustunlar, **13,35 km** Sip kabel, **36 dona** izolyator hamda **6 dona** traverslar o'rnatish ishlari rejalashtirilgan hozirgi kunda ishlari boshlangan.

Viloyat byudjeti mablag'lari hisobidan 600 mln.so'm mablag'lar ajratilgan bo'lib, bu mablag'lar hisobiga tumanning **Sh.Nazar, Oktepa, Dobusqal'a, Guliston, Xudoyerdi, Obodon, Yobu, Bo'ston, M.Nodim** va

Qaynarbuloq mahallalarida **143 ta** temir beton ustunlar, **6,4 km** Sip kabelitarmog‘i tortish, **7 ta** transformator o‘rnatish ishlari rejalashtirilgan.

Tuman suv taminoti bo‘limi tomonidan **2025-2026** yil kuz-qish mavsumida suv obektlarini barqaror ishlashga tayyorlash hamda mukammal va joriy tamirlash bo‘yicha “Samarqand suv ta’midot” AJ Paxtachi tuman filiali tomonidan aholini **kuz-qish** mavsumida toza ichimlik suvi bilan uzlusiz ta’minlash uchun **1 dona** nasos mukammal, **3 dona** nasos joriy tamirlandi hamda **700 metr** polietilen quvurlar mukammal, **350 metr** polietilen quvurlar joriy tamirlandi. **8 dona** zadvejka mukammal tamirdan chiqarildi.

2025 yilda tuman aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun **Boltali mahallasida 5,5 km**, **Guliston mahallasida 0,3 km**, **Gulshan mahallasida 0,8 km**, **Jona mahallasida 6 km**, **Ukrash mahallasida 1,6 km** tarmoq tortish ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari **viloyat byudjeti mablag‘lari hisobidan 600 mln.so‘m**, **Tuman mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan 353 mln.so‘m mablag‘lar** ajratilgan bo‘lib, bu mablag‘lar tumanning **Mojor, Qirguli, Keshtali** va **Qoratepa mahallalarining** ichimlik suvi ta’midotini yaxshilash hamda kuz qish mavsumini betalofat o‘tkazish uchun yo‘naltirilgan.

Tuman Telekommunikatsiya bog‘lamasida **2025-2026** yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida Telekommunikatsiya bog‘lamasi binosi tom qismiga **20 kVtli** quyosh panellari mavjud bo‘lib, qurilmalarni muntazam ishlashi va aloqani uzlusizligini taminlash maqsadida **53 kVtli** dizel generatori o‘rnatilgan va hozirgi kunda **250 litr** yoqlig‘i zaxirasi yaratildi.

Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan **2025-2026** yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yuzasidan **100 tonna** tuz, **400 m³** kum shag‘al aralashmasi zaxirasi yaratildi.

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan **2025-2026** yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yuzasidan **10 tonna** tuz, **100 m³** kum shag‘al aralashmasi zaxirasi yaratildi.

Tuman Tibbiyat birlashmasiga **220 tonna** ko‘mir maxsuloti OP va OShPlarga taqsimot asosida tarqatildi va omborxonalarga joylashtirilib reja **100%**ga bajarildi.

Joriy yil Paxtachi tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limga qarashli maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim maktablarida 2025-2026-yil kuz-qish mavsumini betalofat o‘tkazish maksadida jami **3056 tonna** ko‘mir yoqlig‘isi reja qilingan bulib, taqsimot buyicha **100 %** yetkazildi. Shundan **719 tonna** maktabgacha ta’lim tashkilotlariga va **2337 tonnasi** umumta’lim maktablariga berildi va omborxonalarga joylashtirildi. Shuningdek Madaniyat bo‘limiga **125 tonna**, Sport bo‘limiga **40 tonna**, Kollej va texnikumlarga **65 tonna** ko‘mir maxsuloti yetkazib berildi.

Tumandagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim maktablarida 2025-2026-yil kuz-qish mavsumini betalofat o‘tkazish maksadida xar bir tashkilotni issiqlik tizimi xolati o‘rganilib kamchiliklar bartaraf etilmoqda.

Shuningdek, tuman axolisiga 2025-2026 yil kuz-qish mavsumi uchun jami **8000 tonna** ko‘mir maxsulotini yetkazib berish rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunda aholiga **442 tonna** ko‘mir mahsuloti yetkazib berilgan va ishlar davom etmoqda.

2025-2026 yil kuz qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish uchun Viloyat byudjetidan ajratilgan **800 mln.so‘m** mablag‘lar, tumanning Mirzo olim mahallasi hududida joylashgan **bush turgan binoni ijtimoiy uy qilib ta’mirlash** uchun, **Mevali va Mustaqillik** ko‘chalaridagi mavjud piyodalar yo‘lakchalarini **ta’mirlashi** uchun, **Toshko‘prik mahallasi Amir Temur** ko‘chasida **xavfsiz piyodalar yo‘lakchasini barpo etish** uchun hamda tuman markazidagi ta’mirtalab holatga kelib qolgan istirohat bog‘ini ta’mirlash uchun yo‘naltirilgan.